

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

TURKISTON ASSRDA VAQF MULKLARINING AHVOLI

Boltaboyev Muxammadjon Axmadjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
user7367690@gmail.com
+998937367690

Annotatsiya Ushbu maqolada Turkiston ASSR davrida vaqf mulklarining ahvoli, ularning milliylashtirilishi va bu jarayonning diniy hamda ijtimoiy hayotga ta’siri tahlil qilingan. Sovet hokimiyatining 1918-yildan boshlab olib borgan siyosati natijasida vaqf institutining iqtisodiy va ijtimoiy roli keskin kamaygan. Diniy ta’lim muassasalari vaqf mablag‘laridan mahrum qilinib, ko‘plab masjid va madrasalar yopilgan yoki davlat ixtiyoriga o‘tkazilgan. Shuningdek, maqolada vaqf mulklarining milliylashtirilishi jarayoni, uning natijalari va jamiyatga ta’siri tarixiy faktlar asosida yoritilgan. Shuningdek, Sovet agrar siyosati doirasida vaqf yerdorligining tugatilishi va bu holatning diniy tashkilotlarga ta’siri tahlil qilingan. Natijada diniy institutlarning iqtisodiy mustaqilligi yo‘qolib, ular Sovet davlatining qat’iy nazoratiga o‘tgan.

Kalit so‘zlar: Vaqfi xayriya, vaqfi avlodiy, Turkiston ijroiya qo‘mitasi, muftiy, said, mutavalli, shayx, masjid, madrasa, qorixona, xonaqoh, islom fiqhi, shariat sudlari, jome masjidi, Usmon Qur’oni, yer-suv islohoti, uyezd, imom.

СОСТОЯНИЕ ИМУЩЕСТВА ВАКФОВ В ТУРКЕСТАНСКАЯ АССР

Аннотация В статье анализируется состояние церковных имений в период Туркестанской АССР, их национализация и влияние этого процесса на религиозную и общественную жизнь. В результате политики советской власти с 1918 года экономическая и социальная роль института фонда резко снизилась. Религиозные учебные заведения лишились фондов целевого финансирования, многие мечети и медресе были закрыты или переданы государству. В статье также рассматривается процесс национализации имущества фонда, его результаты и влияние на общество на основе исторических фактов. Анализируется также отмена помещного землевладения в рамках советской аграрной политики и ее влияние на религиозные организации. В результате религиозные учреждения утратили экономическую самостоятельность и попали под жесткий контроль советского государства.

Ключевые слова: Благотворительный фонд, фонд поколений, исполком Туркестана, муфтий, said, мутавалли, шейх, мечеть, медресе, карихана, ханака,

исламское правождение, шариатские суды, мечеть Джаме, Усман Коран, земельная и водная реформа, уезд, имам.

STATUS OF WAKF PROPERTY IN THE TURKISTAN ASSR

Abstrakt This article analyzes the state of endowment properties during the Turkestan ASSR, their nationalization, and the impact of this process on religious and social life. As a result of the policy pursued by the Soviet authorities since 1918, the economic and social role of the endowment institution has sharply decreased. Religious educational institutions were deprived of endowment funds, and many mosques and madrasas were closed or transferred to the state. The article also covers the process of nationalization of endowment properties, its results, and its impact on society based on historical facts. The liquidation of endowment land ownership within the framework of Soviet agrarian policy and the impact of this situation on religious organizations are also analyzed. As a result, the economic independence of religious institutions was lost, and they came under the strict control of the Soviet state.

Key words: Waqfi charity, Waqfi Avlodi, executive committee of Turkestan, mufti, said, mutawalli, sheikh, mosque, madrasa, qarikhana, khanaqah, Islamic jurisprudence, Sharia courts, mosque, Uthman's Qur'an, earth and water reform, uyezd, imam.

KIRISH

Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (Turkiston ASSR) 1918–1924-yillarda mavjud bo‘lib, ushbu davrda diniy va ijtimoiy hayotda muhim o‘rin tutgan vaqf mulklarining taqdiri keskin o‘zgarishga uchradi. Sovet hokimiyati tomonidan olib borilgan siyosatlar natijasida vaqf institutining mavqeyi susayib, uning ijtimoiy hayotdagi roli pasaytirildi.

Vaqf mulklari – bu diniy va xayriya maqsadlari uchun ajratilgan yerlar, binolar va boshqa mulklar bo‘lib, ular madrasalar, masjidlar, qozixonalar, shifoxonalar hamda kambag‘allar va yetimlar uchun ajratilgan mablag‘lar bilan bog‘liq edi. Ushbu mulklar xalqning diniy va madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan bo‘lib, ularning daromadi diniy va ijtimoiy ehtiyojlarni qoplashga yo‘naltirilgan.

Rossiya imperiyasi davrida, ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vaqf mulklarining boshqaruvi qattiq nazoratga olingan bo‘lsa-da, ular hali ham keng tarqalgan edi. Ammo Turkiston ASSR davrida bu holat keskin o‘zgardi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (ASSR) davrida vaqf mulklarining ahvoli haqida adabiyotlar tahlili, asosan, sovet davri vaqf tizimining o‘zgarishi va uning ijtimoiy, iqtisodiy va diniy oqibatlarini o‘rganishga qaratilgan. Vaqf mulklari an‘anaviy musulmon jamiyatlarida diniy, ma‘rifiy va ijtimoiy maqsadlar uchun foydalaniladigan mulklar bo‘lib, ularning taqsimoti va boshqarilishi muhim ahamiyatga ega edi. Mavzu doirasida A.Adhamov, I.Alimov, S.Boltaboyev, B.Rasulov, A.Salmonov, R.Yusupov, O.Komilov va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Sovet davrida vaqf tizimining

milliylashtirilishi va davlat nazoratiga o‘tishi mahalliy aholining diniy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Bu o‘zgarishlar adabiyotlarda keng yoritilgan va hozirgi kunda ham tadqiqotlar davom etmoqda.

Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (ASSR) davrida vaqf mulklarining ahvolini o‘rganish metodologiyasi tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jihatlarini qamrab oladi. Manbalarni tahlil qilishda avvalo, vaqf mulklarining tarixiy evolyutsiyasini o‘rganish uchun arxiv materiallari, davlat hujjatlari, vaqf hujjatlari, shuningdek, sovet davri qonunlari va qarorlarini o‘rganish kerak. Shuningdek, Turkiston ASSRda vaqf mulklarining ahvolini turli davrlar (masalan, sovet davri boshlanishi, 1920–1930-yillardagi milliylashtirish, keyingi davrlar) bo‘yicha ajratib o‘rganish lozim. Maqolada qo‘yilgan masalalarni tadqiq qilishda, tarixiylik, xolislik tamoyillaridan foydalanildi.

NATIJA

Sovet hokimiyati 1917-yil oktabr inqilobidan keyin butun mamlakat bo‘ylab yirik mulk egalari, shu jumladan diniy muassasalarga qarshi qat’iy chora-tadbirlarni boshladi. Turkiston ASSRda ham vaqf mulklarining milliylashtirilishi 1920-yillarda amalga oshirildi. Sovet hukumati vaqf mulklarini davlat nazoratiga o‘tkazdi. Bu mulklar diniy faoliyat uchun emas, balki jamoat ehtiyojlari uchun foydalanishga topshirildi. Masjidlar, madrasalar va boshqa diniy binolar ko‘pincha maktablar, klublar yoki davlat idoralari sifatida ishlatila boshlandi. Vaqf mulklarining milliylashtirilishi bilan birga diniy ta’lim va faoliyat ham qat’iy nazorat ostiga olindi. Madrasalar yopildi, diniy kitoblar ta’qiqlandi va diniy rahbarlar ta’qib qilindi.

Sovet hokimiyati o‘zining diniy tashkilotlarga nisbatan keskin siyosatini olib borar ekan, vaqf institutini ham yo‘q qilishni maqsad qildi. 1918-yilda qabul qilingan “Yer to‘g‘risidagi dekret” va “Diniy tashkilot va uyushmalarni davlatdan ajratish to‘g‘risidagi dekret” asosida vaqf mulklari milliylashtirildi. Endilikda masjidlar, madrasalar va boshqa diniy muassasalar o‘z daromad manbalaridan mahrum bo‘ldi. Madrasalar vaqf mablag‘laridan moliyaviy ta’minot olmay qoldi, natijada ular yopildi yoki davlat ta’lim tizimiga qo‘shildi. Masjidlar va boshqa diniy muassasalar davlat ixtiyoriga o‘tkazildi, ularning aksariyati ombor yoki jamoat binosi sifatida foydalanildi. Diniy sudlar (shariat asosida ishlaydigan qozixonalar) faoliyati butunlay to‘xtatildi. Vaqf mulklarining asosiy qismini yerlar tashkil qilgan bo‘lib, ular Sovet agrar islohoti natijasida dehqonlar va kollektiv xo‘jaliklarga taqsimlab berildi. Bu jarayon natijasida diniy tashkilotlar iqtisodiy jihatdan mustaqilligini yo‘qotdi.

Sovet hokimiyatining vaqf mulklariga nisbatan olib borgan siyosati diniy ta’lim tizimining izdan chiqishiga va ilgari vaqf mablag‘lari bilan ta’minlanadigan madrasalar vaqf daromadidan ajralib, asta-sekin yo‘q bo‘lib ketishiga olib keldi. Shuningdek, diniy tashkilotlarning iqtisodiy ta’sirining pasayishi – ulamolar va diniy arboblarning o‘zining iqtisodiy mustaqilligidan mahrum bo‘lib, ularning jamiyatdagi mavqeyini susaytirdi. Diniy va xayriya ishlarining kamayishi – yetimlar uylari, kasalxonalar va boshqa xayriya muassasalari moliyaviy yordam yo‘qligi sababli yopildi yoki davlat tasarrufiga o‘tkazildi. Jamiyatda keskin o‘zgarishlar – diniy e’tiqod va qadriyatlarning pasayishi kuzatilib, yangi sovet mafkurasi targ‘ib qilina boshlandi.

MUHOKAMA

Sovet hukumati XX asrning 20-yillarda vaqf mulklarini milliyalashtirish siyosatini boshladi. Bu jarayon davomida vaqf mulklari davlat nazoratiga o‘tkazildi va ularning diniy va ijtimoiy maqsadlarda foydalanish cheklab qo‘yildi. Bu siyosat Turkiston ASSRda ham amalga oshirildi va natijada ko‘plab masjidlar, madrasalar va boshqa diniy muassasalar yopildi yoki boshqa maqsadlarda foydalanila boshlandi.

Vaqf mulklarining milliyalashtirilishi mahalliy aholining diniy va ijtimoiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Vaqflar orqali ta’minlangan ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy yordam tizimlari susaydi, bu esa aholining hayot sifati va madaniy darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Vaqf mulklarining milliyalashtirilishi diniy ta’lim va madaniyatning rivojlanishiga to‘sqinlik qildi. Madrasalar va diniy muassasalar yopilganligi sababli, diniy bilimlar tarqalishi cheklab qo‘yildi va bu mahalliy madaniyatning uzilishiga olib keldi.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin, mustaqillik yillarida Turkiston mintaqasi davlatlari (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston) vaqf mulklarini qayta tiklash va ularni diniy va ijtimoiy maqsadlarda foydalanishga qaratilgan harakatlarni boshladi. Bu jarayon ham adabiyotlarda keng yoritilgan. Sovet davrida vaqf tizimining milliyalashtirilishi va davlat nazoratiga o‘tishi mahalliy aholining diniy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatganligini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA

Turkiston ASSR davrida vaqf mulklari milliyalashtirilib, ularning ta’siri butunlay yo‘q qilindi. Bu jarayon diniy va xayriya tizimining yemirilishiga, madrasalar va masjidlarning iqtisodiy jihatdan qashshoqlashishiga olib keldi. Sovet hukumati tomonidan olib borilgan bu siyosat uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatib, keyinchalik O‘zbekiston SSR davrida ham diniy tashkilotlarning cheklanishiga sabab bo‘ldi.

1922-1924-yillarda dinga va diniy muassasalar faoliyatiga bir qadar yo‘l ochib berilishi sovet hokimiyatining Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) davridagi tadbirlari bilan bog‘liq edi. Omonsiz harbiy to‘qnashuvlar tufayli xo‘jalikning butunlay vayron bo‘lishi, dahshatli ocharchilik, bolshevikcha tartiblarga nisbatan qarshilik ko‘rastish jarayoni kabi omillar hokimiyatni boshqarishda murosali yo‘l bilan ish ko‘rishga majbur qilgan edi. Turikstonda maorif va madaniyat rivoji, iqtisodiy ahvolni diniy muassasalar bilan bog‘liqligi ham sovet hukumatini vaqtincha ochiqdan-ochiq dahriylik siyosatini olib borishlikdan ehtiyot bo‘lishga majbur qilgan edi. Turkiston ASSR MIQning vaqf idoralari faoliyatini maorif bo‘limi tomonidan nazorat o‘rnatish to‘g‘rsidagi qarori diniy muassasalar ahvolini yanada og‘irlashtirdi. Eski usul maktablari va qorixonalar maorif bo‘limi tomonidan isloh qilishga kirishildi.

ADABIYOTLAR

1. ЎЗР МДА, 94-фонд, 1-рўйхат, 320-иш.
2. ЎЗР МДА, 25-фонд, 1-рўйхат, 1414-иш.

3. Адҳамов А. Дин ҳам шўролар ҳукумати. Тошкент-Самарқанд: Ўзнашр, 1929.
4. Бухоро ахбори. 88 сон, 1922, 29 июнь (араб имлосида). 88 сон, 1922, 5 июль
5. Наука и религии. 1985. № 12. – С. 19.